

FORTEPIANO UMUMINSONIY CHOLG‘U SOZI

Xabibullayeva Mubinaposhsha*Andijon davlat pedagogika instituti**Musiqqa ta’limi yo’nalishi talabasi*

Anotatsiya: Ushbu maqolada fortepianoning oldin oq klavishlar qora rangda, qora klavishlar esa oq rangda bo’lganli, asrlar mobaynida shakllanib hozirgi fortepiano ko’rinishga kelganligi. Mashxur kompozitorlar tomonidan musiqiy asarlar yaratilib, fortepiano maktablari paydo bo’lganligi haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Klavikord, fortepiano, Kristofore Bartalameo, S.Prokofev, etyud.

Fortepiano – umuminsoniy cholg‘u sozi. Musiqqa san’atida Fortepiano ijrochiligi eng ommalashgan turlardan biri sanaladi. Har bir xalqning o’z milliy cholg‘u sozlari bo’lishi barchaga ma’lum. Bugungi kunda dunyoning barcha xalqlari orasida eng ommalashgan umuminsoniy cholg‘u sozlari ham mavjud. Bulardan biri – fortepiano cholg‘usidir. Ushbu cholg‘u uchun jahonning barcha taniqli kompozitorlari qatorida O’zbekiston kompozitorlari ham yorqin asarlar yaratdilar. Ular yosh ijrochilar tomonidan sevib ijro etib kelinmoqda. Tarixga nazar tashlaydigan bo’lsak, fortepiano san’ati Klassisizm davrida paydo bo’lib, shakllana boshlagan va fortepiano cholg‘usi yaratilgan. I.S.Bax va uning o’g’illari, shogirdlari klavir musiqasi uchun birinchi namunalarni yaratdilar. Gaydn, Mosart, Betxovenlarning fortepiano ijodi bu cholg‘uni yuksaklarga ko’tarilishida va ommalashishida muhim o’rin tutdi. London va Vena maktablari shakllandi. Klementi va Gummel ijodi ravnaq topdi. O’z navbatida Parij maktabi ham paydo bo’lib, Kalkbrener va Talberg ijod namunalari tarqaldi. Shuningdek, Cherni ijrochilik mahorati maktabi shakllandi va bugungi kunda ham ushbu namunalar fortepiano ijrochiligining asosiy maktabi sanaladi.

Fortepiano cholg‘u asbobining tarixi juda qadim zamonlarda ya’ni, qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. Ko’paytirish nazariyasining asoschisi Pefagor yashagan davrda monoxord deb nomlanuvchi cholg‘u asbobi mavjud bo’lgan. Bu cholg‘u asbobi ustida tor tortilgan uzun ingichka qutidan iborat edi. Bu quti maxsus daraxt yog’ochidan yasalgani uchun undan chiqadigan tovush baland va o’z tembr xususiyatiga ega bo’lgan. Tor qutichaga siljiltimaydigan xarrak bilan qotirilgan, undan tashqari yana bir harakatlanuvchi xarrak bo’lib, u torda harakatlantirib, musiqiy tovushni pasaytirish yoki balandlatish uchun xizmat qilgan. Vaqt o’tgan sari bitta tor yoniga boshqa torlar qo’shib borilgan. Bu cholg‘u asbobdan maxsus maun (mediator) bilan ba’zida esa torlarga maxsus tayoqcha bolg’acha bilan urib ijro etilgan.

Asrlar o'tib, bu cholg'u asbobi takomillashib bordi. Quti kattalashib, to'g'ri burchakli holatga keladi. Tor tomonga klaviatura joylashtiriladi. Endi cholg'uchi klavishni bosib chaladigan bo'ldi, unga moslangan metall plastinkalar torlarni tiragan holda tovush hosil qilgan. Bu cholg'u asbobi klavikord deb atala boshlagan. Uni stol ustiga qo'yib, turgan holda ijro etilgan. Klavikord qimmatbaho yog'ochdan, bezakli qilib yasalgani uchun boy-badavlat kishilarning mehmonxonalari ham bezashga xizmat qilgan.

XVII asr oxirida Fransiyada pastki oq klaviaturalar qora daraxtdan qora rangda, yuqoridagilari oq rangda bo'lib, fil suyagidan ishlangan. Bunday qilib yasalişining sababi u davrlarda klavishli cholg'u asboblarda ko'proq xotin-qizlar ijro etishgan bo'lib, qora klaviaturalar ustida oppoq qo'lli klavikord chalayotgan xotinlarning jozibali qo'l harakatlaridan zavqlanish uchun bo'lgan. Amma bunaqa qora klaviaturalar orasidagi oraliq chiziqlar qorishib ketib, ko'rinmas va cholg'uchiga qiyinchilik tug'dirar edi.

XVII asrga kelib klaviaturalar rangi hozirgi fortepianodagidek joylashtirila boshlagan. Klavishli cholg'u asbobi ustalari izlanishda bo'lishdi va 1711-yilda Italiyaning Radua shahrilik usta Kristofore Bartalameo yangi cholg'u asbobi kashf etdi. Endi cholg'uchi bu cholg'u asbobida qattiq va sekin chalish imkoniga ega bo'lgani uchun Forteplano deb nomlandi. Shu bois asbobning nomi "forteplano" deb nomlanib, italyan tilida tovush kuchi nuqtayi nazaridan - "baland-past" ma'nolarini bildiradi. Asbobning klavishlarini bosganda jaranglaydigan tovushlar esa klavishdan emas, balki asbobning ichida tarang tortilgan simlardan yangraydi. Bu cholg'u asbobda eng muhim detall ovoz so'ndirgich bo'lmaganida torlar keragidan ortiq tebranib musiqa o'rnida faqat shovqin eshitilgan bo'lar edi. Forteplano cholg'u asbobida ikkita pedal o'rnatilgan bo'lib, biri tovushlarni to'htatish, ikkinchisi esa sadolantirishga xizmat qiladi. 7 yillik urush Yoxann Zumpe ismli yigit Germaniyadan Londonga qochib ketganida. U yerda u Kristoforining pianinosini takomillashtirib, qora tugmachalarning alohida uchastkalarini, shuningdek, trebl va bas imkoniyatlarini taqdim etdi. Ushbu yangi pianinoda o'ynash juda qiyin edi. Va shu sababli juda kam odam asbobda qanday o'ynashni o'rgangan. Kristoforning ixtirosi tez orada jurnal maqolasi natijasida jamoatchilik e'tiborini tortdi. Kristoforning asbobi dastlab asta-sekin tarqaldi, ehtimol klaviaturada qaraganda ancha murakkab va uni qurish qiyin bo'lganligi sababli u juda qimmat edi. Bir muncha vaqt forteplano royalli vositasi bo'lib, Portugaliya va Ispaniya sudlarida Kristofari tomonidan qurilgan yoki uslubda ijro etilgan asboblari ijro etilgan. 1730-yilda Germaniyada Silbermann Frayberg Kristofori loyihasi asosida pianinolar tayyorlashni boshlagan. Davrlar o'tishi bilan shaklan o'zgarishlarga uchrab takomillashib bordi.

1920-yillar yangi uslub yo'nalishlarining faol rivojlanish davri bo'lgan deb ishonch bilan ta'kidlash mumkin. S.Prokofev forteplano ijodi o'zgacha musiqiy til

paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Ko'plab sonata va konsertlar yaratildi. Prokofev nafaqat kompozitor, balki pianinchi sifatida ham jahon ahliga tanildi. Bu kompozitor o'z ijodini yangilash yo'lida izlanishlar qildi, yangicha mavzularga murojaat qildi. Xususan, musiqiy ijodiyotga urush obrazlarini kiritdi, bu "Oq va qora" deb nomlangan asarida yaqqol ko'rindi. 12 ta etyud - Debyussining kechki yo'nalish qomusi, deb nom oldi.

XX asrning 2-yarmida fortepiano san'atida rivojlanish kuzatildi. Musiqiy avangardning har xil oqimlari paydo bo'ldi. A.Shyonbergning shogird va izdoshlari nafaqat butun dunyoda, hatto O'zbekistonda ham paydo bo'ldi. Musiqa materialini umumiy (total) qator birlashtirilishiga intilishning kuchayishi kuzatildi. Bunday rivojlanish bosqichlari O'zbekistonda ham bo'lib o'tdi. Ayniqsa, fortepiano asarlarining ko'p ovozli fakturalari ijrochida garmonik va polifonik eshitish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu fikrni kompozitor N.A.Rimskiy-Korsakov ham garmonik eshitish malakasini rivojlantirishda fortepiano o'rganishning o'rni, haqidagi maqolasida ilgari surgan. Muayyan musiqiy asarni konsertda, radio yoki magnit tasmasida tinglashdan ko'ra mustaqil chalib ko'rish afzalroq bolib, kishida boshqacha taassurot qoldiradi. Asarni qanchalik e'tibor bilan tinglab ko'rmang, uni yaqindan o'rganishda chalib ko'rish va mustaqil talqin etish borasida keng ma'lumotga ega bo'lish qiyin. Bunda ijrochi nafaqat o'rganish jarayonini boshdan kechiradi, balki, estetik quvonchni ham his etadi. Forteplano ijro texnikasini shakllantirish uchun qo'yiladigan dastlabki talablardan biri bu gavdani to'g'ri tutish, qo'l holatida bilak tepaga ko'tarilmagan (ayniqsa akkordlar ijrosi paytida) tirsak tepadan 30 gradus burchak holda turishi maqsadga muvofiqdir. Chunki qanchalik erkin o'tirilsa qo'llarning tezroq yurishiga zamin yaratiladi va albatta asarning texnikaviy jihatdan qo'yilgan maqsadga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Asarni o'rganish jarayonida ham, ijro paytida ham klaviaturaga qarab emas balkim, notaga qarab chalish ko'nikmasini shakllantirish kerak. Bunda barmoq xotirasi yaxshi rivojlanadi. Chunki aynan aplikatura -ning qulayligi asarni eslab qolish jarayonini, barmoqlar xotirasini mustahkamlab, tez sur'atli passajlar ijrosini yengillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.djamalova , Utayeva N. " Forteplano olamiga ilk qadamlar", o'quv qo'llanma. G'.G'ulom nomidagi NMIU, Toshkent, 2016.
2. А.Баташев История джазовой музыкальной культуры М.М., 2000.
3. К.Бюхера Работа и ритм М., 1923.
4. Л.Ганиева Методология фортепианно-ансамблевой музыки Узбекистана.
5. Т.:Нишон ношир, 2016.
6. Azimov X. Forteplano darsligi,-., "O'qituvchi",1997.